

turizmning kelajagi ekologiya va iqtisodiy rivojlanishning muvozanatini saqlashga bog'liqdir va Singapur bu yo'lda muhim tajribaga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U. O. M. (2024). SMART TEXNOLOGIYALARNING TURIZM RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (6), 132-141.
2. Umarov, O., & To'xtanazarova, M. (2024). MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 11, 37-40.
3. Omonjon, U. (2024). ILMIY TURIZM VA UNING YEVROPA DAVLATLARIDA RIVOJLANISHI. Kokand University Research Base, 940-943.
4. Ismoilov, B. (2024). TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT XARIDLARIDAGI ISHTIROKI:(Farg'ona viloyati misolida). QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 133-135.
5. Jurayev, U. (2024). TURIZM MOLIVASIDA INVESTITSIIYA VA INNOVATSIYALARNING ROLI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 75-77. <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/668>
6. Rasulov, X. (2024). TURIZM SANOATIDA MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARNI BOSHQARISHNING (CRM) O'RNI VA AHAMIYATI. *University Research Base*, 525-527. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/668>
7. Rasulov, X. Y. (2024). O'ZBEKISTON TURIZM SANOATIDA MADANIY TURIZMNING O'RNI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 12, 71-76. <https://doi.org/10.54613/ku.v12i.993>

FARG'ONA VODIYSIDA EKOTURIZM VA MAHALLIY HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISH (QO'QON, MARG'ILON VA RISHTON MISOLIDA)

Mo'minova Kanizaxon

Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

Valiyeva Layloxon Obidjon qizi

Qo'qon Universiteti talabasi

laylovaliyeva59@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada dunyo bo'ylab rivojlanayotgan va turistlar e'tiboriga sazovor bo'layotgan ekoturizm va hunarmandchilikni bizning yurtimizda ham rivojlantirish uchun taklif va xulosalar bilan boyitiladi.

Kalit so'zlar: ekoturizm, hunarmandchilik, Qo'qon, Marg'ilon, Rishton, turizm, iqtisodiy rivojlanish.

Kirish: Farg'ona vodiysi – O'zbekistonning madaniy va iqtisodiy jihatdan eng muhim hududlaridan biri bo'lib, bu yerda ekoturizm va an'anaviy hunarmandchilik katta salohiyatga ega. Ushbu tadqiqot Qo'qon, Marg'ilon va Rishton shaharlarida ekoturizm hamda mahalliy hunarmandchilikning rivojlanish holatini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida ushbu shaharlarning tabiiy va madaniy boyliklari, hunarmandchilik an'analari hamda turizmning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ekoturizm va hunarmandchilikni rivojlantirish mahalliy iqtisodiyotning o'sishiga, ish o'rinlari yaratishga va milliy merosni saqlashga xizmat qiladi. Tadqiqotning maqsadi – Farg'ona vodiysida ekoturizm va mahalliy hunarmandchilikni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud muammolar va ularning yechimlarini tahlil qilishdir.

Farg'ona vodiysida ekoturizmning rivojlanish imkoniyatlari. Ekoturizm – bu tabiiy muhitni asrab-avaylab, sayyohlarga ekologik toza muhitda dam olish imkoniyatini yaratish orqali iqtisodiy foyda olish tizimidir. Farg'ona vodiysi o'zining betakror tabiati va tog'li hududlari bilan ekoturizm uchun katta salohiyatga ega. Quyidagi omillar bu hududda ekoturizmni rivojlantirishga yordam beradi:

ASOSIY QISM: Tog'li hududlarda ekoturistik marshrutlarning yaratilishi: Bunga misol qilib Farg'ona vodiysining tog'li hududlari Chodak, Chimyon, Oq-Suv va boshqa joylarni ko'rsatish mumkin.

Qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik bilan bog'liq agro-turizm loyihalarining joriy etilishi: Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlaridagi milliy bog'lar va qo'riqxonalar hamda Oltiariqdagi uzumzorilik misol bo'ladi.

Qo'qon, Marg'ilon va Rishton kabi shaharlardagi tarixiy va tabiiy obyektlarning sayyohlarga tanishtirilishi.

2. Hunarmandchilikning iqtisodiy va madaniy ahamiyati

Farg'ona vodiysi hunarmandchilikning eng qadimiy markazlaridan biri hisoblanadi. Bu hududda quyidagi hunarmandchilik yo'nalishlari keng rivojlangan:

Qo'qon – yog'och o'ymakorligi va gilamdo'zlik markazi. Qo'qon gilamlari va yog'ochdan yasalgan bezak buyumlari butun O'zbekistonda mashhur.

Marg'ilon – ipakchilikning markazi. Marg'ilonning atlas va adras matolari nafaqat mahalliy bozorlarda, balki xorijda ham talabgir.

Rishton – kulolchilik markazi. Rishton kulolchiligi o'zining tabiiy rangdagi sirlangan sopol buyumlari bilan mashhur.

Mahalliy hunarmandchilikni rivojlantirish orqali:

1. Yangi ish o'rinlari yaratiladi ya'ni mahalliy aholini bandligi ta'minlanadi.
2. Mahalliy va xorijiy bozorlarda hunarmandchilik mahsulotlariga talab ortadi.
3. An'anaviy hunarmandchilik maktablari saqlanib qoladi va yosh avlodga yetkaziladi.
4. Ekoturizm va hunarmandchilikning o'zaro integratsiyasi amalga oshadi.

Ekoturizm va hunarmandchilikni birlashtirish turizm sohasida yangi imkoniyatlarni ochadi. Masalan: Sayyohlar uchun hunarmandchilik ustaxonalari va ish jarayonlarini tomosha qilish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bunga misol Marg'ilon, Qo'qon va Rishtonga sayohat davomida to'qimachilik, duradgorlik hamda kulolchilik jarayonlarini tomosha qilishlari va o'zlari ham sinab ko'rishlari mumkin bo'ladi.

Ekologik toza hunarmandchilik mahsulotlarini sotish orqali qo'shimcha daromad manbalarini yaratish.

Turistlar uchun an'anaviy hunarmandchilik ustaxonalari va mahorat darslarini tashkil etish.

Bu usullar nafaqat mahalliy iqtisodiyotga foyda keltiradi, balki sayyohlarni jalb qilish orqali milliy madaniyatni ommalashtirishga xizmat qiladi.

Ekoturizm va qishloq turizmi uyg'unligi shuno ko'rsatadiki:

Sayyohlarni mahalliy fermer xo'jaliklariga jalb qiladi.

Bog'dorchilik, ipakchilik, uzumchilik kabi an'anaviy tarmoqlar bilan tanishtiradi.

An'anaviy hunarmandchilik ustaxonalari va mahalliy turmush tarzini ko'rsatadi.

Madaniy meros obyektlarini qamrab oladi.

Qo'qon "Xudoyorxon O'rdasi", Marg'ilonning "Yodgorlik ipak zavodi", Rishton kulolchilik markazi bular diqqatga sazovor joylar hisonlanadi.

Mahalliy bozorlarga va hunarmandchilik ustaxonalarga ekskursiyalar tashkillashtiriladi.

Hududning tarixiy ziyoratgohlarini ekoturizm doirasida ommalashtiriladi. Tog' va o'rmon yo'llarini ekoturistik sayr yo'nalishlariga aylantirish va sayohatchilar uchun ekologik toza turar joy va lager maskanlari tashkil etish hamda velosiped yo'laklari, piyoda yurish yo'nalishlari (trekking) va chodir turizmi uchun sharoit yaratish yaxshi taklif bo'ladi.

Farg'onadagi asosiy ekoturistik marshrutlar misollari:

1. Chimyon – Oq-Suv – Chatkal: Tog'-ekoturizmi va sayr marshruti
2. Qo'qon – Rishton – Marg'ilon: Hunarmandchilik va qishloq ekoturizmi
3. Farg'ona vodiysi tog'li hududlaridagi agro-turizm marshrutlari

Xulosa: Farg'ona vodiysida ekoturizm va mahalliy hunarmandchilikni rivojlantirish katta salohiyatga ega. Ushbu yo'nalishlar mahalliy aholi uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratib,

mintaqadagi turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi. Qo'qon, Marg'ilon va Rishton kabi shaharlarda ekoturizm va hunarmandchilikni uyg'unlashtirish orqali sayyohlikni yanada jozibador qilish mumkin. Shu sababli, davlat va xususiy sektor tomonidan qo'shimcha investitsiyalar kiritilishi, hunarmandchilik mahsulotlarini xalqaro bozorlarga olib chiqish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqilishi lozim. Xulosa o'rnida shuna aytishimiz mumkinki Farg'ona, Qo'qon hamda Rishton bu hozirda yetarli darajada mahalliy va xorijiy turistlar tashrifiga ega bo'lgan hudud hisoblanadi. Ammo bu hududlarda mavjud bo'lgan obyektlar va urf odatlar, hamda ekologik toza hududlar mavjudligini keng ommaga global tarzda namoyish qilish uchun biz yuqorida keltirib o'tilgan fikr va takliflarga amal qilishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Koriyev, M. (2016). Farg'ona vodiysida tog' ekoturizmini rivojlantirish omillari. Фарғона водийсида экотуризмни ривожлантириш истиқболлари Республика илмий-амалий конференцияси материаллари.
 2. Maxkamov, E.G'. (2024). Farg'ona vodiysida turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari. Farg'ona davlat universiteti ilmiy xabarлари, 30(1), 19.
 3. Talabboyeva, M. (2024). Farg'ona vodiysining ekoturizm salohiyati. Theoretical and Practical Foundations of Scientific Progress in Modern Society, 18(1).
 4. Gulomkodiroya, M. S. Qizi. (2024). A STUDY ON VARIOUS E-RECRUITMENT TOOLS AND ITS EFFECTIVENESS FOR RECRUITMENT. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10(10), 32-34. <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.902>
 5. THE ESSENCE OF CUSTOMER RELATIONSHIP MANAGEMENT SYSTEMS, DEVELOPMENT THEORIES. (2025). International Conference on Economics, Finance, Banking and Management, 102-111. <https://econferences.com/index.php/6/article/view/491>
- FACTORS INFLUENCING CUSTOM

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Усманова Зулфия Мусаевна

Старший преподаватель кафедры «Экономика»

Ферганский государственный технический университет zulfiyaxon16.04@mail.ru

Аннотация: Экологический туризм является одним из наиболее перспективных направлений развития туристической индустрии в Узбекистане. В условиях глобальных экологических вызовов и растущего интереса к устойчивому развитию, страна обладает уникальными природными ресурсами, богатым биоразнообразием и значительным потенциалом для развития экотуризма. В статье рассматриваются ключевые направления развития экологического туризма в Узбекистане, включая создание экологических маршрутов, развитие инфраструктуры, популяризацию эколого-образовательных программ и внедрение инновационных технологий. Основное внимание уделяется вопросам сохранения природного наследия, взаимодействия с местными сообществами и устойчивого управления природными территориями.

Ключевые слова: экологический туризм, природное наследие, туристическая сфера, живописный пейзаж, цифровизация, маркетинг

Annotatsiya: Ekoturizm O'zbekistonda turizm industriasini rivojlantirishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Global ekologik muammolar va barqaror rivojlanishga qiziqish ortib borayotgan bir sharoitda mamlakat noyob tabiiy resurslarga, boy bioxilma-xillikka va ekoturizmni rivojlantirish uchun salmoqli salohiyatga ega. Maqolada O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, jumladan, ekologik yo'nalishlar yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, ekologik ta'lim dasturlarini ommalashtirish va innovatsion